

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
IJTIMOIIY
FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

V.O.Gofurova

Environmental and socio-cultural impact of tourism	6
--	---

FALSAFA

M.A.Mamatov, Sh.M.Mallayeva G.R.Mannobova

Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik siyosati amalda (Farg'ona viloyati misolida)	10
---	----

A.A.Qambarov, M.A.Abdusalimova

Qo'qon adabiy muhitini rivojlantirishda ayollarning ro'li	14
---	----

A.A.Abduvaxidov

Ma'rifatparvarlik fenomenining asosiy g'oyasi, vujudga kelishi va rivojlanishi	18
--	----

I.A.Asatulloev

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida "sog'lom jamiyat"ni shakllantirish vazifalari va istiqbollari	23
---	----

S.S.Sodiqov

Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlar faol ijtimoiy pozitsiyasining ahamiyati	27
---	----

A.A.Abdusalomov

Jadidchilikda tarix va ta'lim masalalari.....	33
---	----

M.R.Axmadova

Ma'naviy targ'ibot ishlarini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning o'rni	36
---	----

Sh.A.Dolimov

Yangi O'zbekistonda maktab ta'limidagi modernizatsiya jarayonlarining sinkretlashuv xususiyatlari va uning ijtimoiy-falsafiy jihatlari.....	40
---	----

G.M.Ravshanova

Axborotlashgan jamiyat rivojining innovatsion-ma'rifiy asoslari.....	43
--	----

D.S.Raxmatova

Xoja Orif Revgariy hayoti va ma'naviy merosi	48
--	----

N.T.Xolikov

Globallashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishining falsafiy-konseptual tahlili	54
--	----

S.S.Mamatkadirov

Yoshlar mediamadaniyatini rivojlantirishda davlat axborot siyosatining ustuvor vazifalari va yo'nalishlari	58
--	----

Sh.E.Daniyarov

Jadidlar harakati va madaniy uyg'onishning falsafiy asoslari.....	62
---	----

U.B.Maxtumova

Ommaviy madaniyat va yoshlar: madaniy qadriyatlarga tahdid yoki imkoniyat.....	67
--	----

O'.M.Xamroqulov

Yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning o'rni	70
---	----

Y.Y.Turobov

XVIII-XIX asr mutafakkirlari merosida axloq tamoyillari	75
---	----

Sh.M.Xaydarova

Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlarni yakdil maqsadga yo'naltirishning istiqbolli vazifalari	82
---	----

D.M.Xusanov

Postmodern jamiyatda axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi dialektikasi	86
--	----

F.M.Usarov

Axborotlashgan jamiyat sharoitida jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirishning strategik asoslari.....	90
---	----

M.M.Mamasaliyev

O'zbekistonda o'zgalarga toqatsizlikni kuchayib borishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy muammolar tahlili.....	93
---	----



UO'K: 316.774+37.013+004

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT RIVOJINING INNOVATSION-MA'RIFIY ASOSLARI

ИННОВАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ
ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВАINNOVATIVE AND EDUCATIONAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF AN
INFORMATION SOCIETYRavshanova Gulchera Maxammatovna 
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya

O'zbekistonning innovatsion rivojlanishi raqamli texnologiyalar sohasida ma'lum bilim va ko'nikmalarni talab qiladi, shuning uchun ta'lim tizimi o'zgarishi va talabalarning axborotlardan shaxsiy foydalanishi, ularning kasbiy faoliyati uchun ham raqamli ko'nikmalarga, axborotdan foydalanish madaniyatiga ega bo'lishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan turli xil o'quv modellardan foydalangan holda raqamli texnologiyalarning pedagogika sohasida asosiy va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish masalalari alohida dolzarb bo'lib qolmoqda. Maqolada rasmiy, norasmiy va ma'lumotli o'quv modellari tasvirlangan, ushbu modellarni amalga oshirish tamoyillari shakllantirilgan, turli pozitsiyalardan raqamli ko'nikmalarni olish yo'nalishlari ko'rib chiqilgan: talabaning qiziqishi, bilimlarni qo'llash, bilim olish usullari, tomonlarning qiziqishi, o'qitish shakllari o'ranganilgan.

Аннотация

Инновационное развитие Узбекистана требует определенных знаний и навыков в области цифровых технологий, поэтому система образования должна быть изменена и направлена на приобретение цифровых навыков как для личного пользования учащихся, так и для их профессиональной деятельности. В связи с этим особую актуальность приобретают вопросы формирования базовых и профессиональных навыков в области педагогики цифровых технологий с использованием различных моделей обучения. В статье описаны формальные, неформальные и информационные модели обучения, сформулированы принципы реализации этих моделей, рассмотрены направления приобретения цифровых навыков с различных позиций: интерес студента, применение знаний, способы получения знаний, изучены интересы сторон, формы обучения. В статье предлагаются критерии оценки цифровых навыков, знаний, умений с точки зрения интереса студента и применения знаний.

Abstract

The innovative development of Uzbekistan requires certain knowledge and skills in the field of digital technologies, therefore, the educational system should be aimed at changing and obtaining digital skills for the personal use of students, their professional activities as well. In this regard, the issues of the formation of basic and professional skills in the field of Pedagogy of digital technologies using various training models remain especially relevant. The article describes formal, informal and informative educational models, the principles of implementing these models are formulated, the directions for obtaining digital skills from different positions are considered: the student's interest, the application of knowledge, the methods of obtaining knowledge, the interest of the parties, the forms of training are studied. In the article, criteria for evaluating digital skills, knowledge, skills are proposed in terms of student interest and application of knowledge.

Kalit so'zlar: ta'lim, raqamli texnologiyalar, ko'nikmalar, kompetentsiya, o'qitish modeli, tamoyillari, baholash mezonlari.

Ключевые слова: образование, цифровые технологии, навыки, компетенции, модель обучения, принципы, критерии оценки

Key words: education, digital technology, skills, competence, training model, principles, assessment criteria.

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab inson to'g'risida g'amxo'rlik qilish, uning qadr-qimmatini joyiga qo'yish ustuvor tamoyillardan biri sifatida davom etib kelmoqda.

Mamlakatimiz ilm fan olamida muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev rahbarligida amalga oshiralayotgan keng ko'lamli islohotlar ayni paytda ta'lim va tarbiya sohasida odamlarimizning ongu tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirish, insonlarni davlat idoralaridan rozi va baxtli bo'lib yashashlari davlat siyosatining ustuvor masalasiga aylandi.

Inson tafakkuri shunday bir jarayonki, u doimo rivojlanib, takomillashib, boyib boraveradi. U ayniqsa, tarbiyaning tub burilish davrlarida ijodiy xususiyatga ega bo'ladi, bunyodkorlik va yaratuvchilik omiliga aylanadi. Shu bois ham, inson tafakkurini doimo tarbiyalash va boshqarish ehtiyoji yuzaga keladi. Aynan shu maqsadlar yo'lida tarbiyalangan inson tafakkuri, o'z navbatida, ijtimoiy faollikni tug'diradi.

Hozirgi globallashuv davrida jamiyatning axborotlashuvi darajasining oshishi, axborot texnologiyalarining rivoji yoshlardan ijtimoiy-siyosiy voqelikdagi o'zgarishlarga moslashish hamda jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashni kafolatlovchi chuqur bilim va o'ziga xos fikrlashni talab etmoqda. Bu jarayon, ba'zi olimlar nazarida, nafaqat OAV, balki ijtimoiy va iqtisodiy sohalarini ham qamrab olmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, axborotlashuv jarayonlarining shiddat bilan kechishi, yosh avlodning ma'naviy qiyofasida bir tomondan, axborot resurslari va axborot vositalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini o'z ichiga oluvchi axborot madaniyatini shakllantirish, ikkinchi tomondan esa, ularni bu sohadagi turli xurujlar va tahdidlardan asrashni hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylantirmoqda. Axborot nazariyasida axborotning qanchalik foydali ekani va maqsadga yo'naltirilganligiga urg'u beradigan pragmatik jihat kuchli tavsiflab berilgan. Bu qarashga ko'ra axborotning foydalilik me'yori uning mavhumlik me'yoriga bog'liq bo'lib, agar xabar olish jarayonida iste'molchi ongidagi muayyan masala bo'yicha mavhumlik o'zgarsa, axborotning foydaliligi xabar olingungacha bo'lgan va undan keyingi mavhumlik o'rtasidagi farqqa teng bo'ladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Amerikalik faylasuf Daniyel Bellning fikricha, boshlangan axborot inqilobi ikki inqilobdan iborat: kompyuter inqilobi va telekommunikatsiya inqilobi, buning natijasida axborotni butun ijtimoiy hayotning ayniqsa, iqtisodiy hayotning markaziy bo'g'ini bo'lgan texnika yaratildi.⁴ Kompyuterlashuvni umumsotsiologik pozitsiyadan turib anglash jamiyat taraqqiyotining yangi «triada» shaklidagi konsepsiyasini ilgari surishni taqozo qildi. Bu borada D.Belga asosiy ijtimoiy rivojlanish bosqichi sifatida agrar, industrial va postindustrial jamiyatlarni ajratib ko'rsatadi (postindustrial jamiyatni keyinchalik u informatsion jamiyat deb atagan). XXI asrning boshiga kelib postindustrial jamiyat fazasiga D.Bell hisoblashicha, AQSH, Yaponiya, G'arbiy Yevropa qadam qo'yadi.

Global axborotlashuv sharoitida internetning yoshlar shaxsi shakllanishida asosiy o'rni borligi bu haqiqatdir. Jamiyatimizda intellektual qobiliyati yuqori, kreativ fikrlovchi kadrlarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Binobarin, bugungi kunda jamiyatning barcha sohalariga innovatsiyalarni qo'llash ijtimoiy hayotning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Aslini olganda birgina ta'lim tizimida innovatsiyalarni joriy etilish barcha muammolar va savollarga javob topish demaqqir. Ta'lim tizimiga qaratiladigan e'tibor muammolarni hal etish jarayonida o'zining amaliy mevasini berishi tabiiy.

Internet saytlari orqali yoshlarga kuchli salbiy ta'sir etuvchi axborotlarni tasnifi quyidagichadir:

1. Diniy ekstremizm va terrorchilik g'oyalari, missionerlik va prozelitizm, millatchilik, irqchilik va boshqalar.

2. Sharqona va o'zbek mentalitetiga zid odat-ko'nikmalarni, g'arbona turmush tarzini targ'ib etuvchi, "moda", "zamonaviylik" niqoblari ostidagi ma'nan va axloqan tuban "ommaviy madaniyat" va boshqalar.

3. Pornografiya va axloqiy buzuvchilikni targ'ib qiluvchi axborotlar.

4. Hali aniq tekshirilmagan, o'z isbotiga ega bo'lmagan xujumkor soxta axborotlar (dezinformatsiya) va boshqalar.

Internetdagi axborotlarning havfliligi quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda:

- real voqelikni o'zgartirishga qaratilgan virtual dunyoni yaratish;
- yoshlarning ongi va xulqini turli holatlarga solish;
- tashqi qoliplar asosida yoshlarning maqsadlari, qadriyatlari, turmush tarzini o'zgartirish;
- axborotni buzib ko'rsatish va boshqalar.

Fikrimizcha, o'quv jarayonini muvoffaqiyatli modernizatsiyalashning kafolatli yo'llaridan biri Internet texnologiyalarini ta'lim tizimida keng joriy etgan holda, jahon axborot infrastrukturasidan jamoaviy foydalanishni yo'lga qo'yishdan iboratdir.

Bundan tashqari, talabalarning mustaqil ishlari ta'lim jarayonining asosiy komponentalaridan biri sifatida qaralishi lozim.

FALSAFA

Yuksak zakovat, chuqur bilimli iqtidor egalarini tayyorlashda, tabiiyki, ta'lim tizimi oldingi o'ringa chiqadi. Ana shu nuqtai nazardan yoshlarni o'qitish va tarbiyalash jarayoniga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Internet orqali tarqatilayotgan bu kabi yot, buzg'unchi g'oyalar va axborotlar taassufki yoshlar tomonidan qabul qilinayotgani rost va buning oqibatlari jahondagi barcha davlat, xalqlarni tashvishga solmoqda. Bu maqsadga erishish avvalo ta'lim tizimida tarbiyaning mazmuni, usuli, uslubi va yondashuvini yangilash zarurligini taqazo etadi.

Taraqqiyot jarayonida internet axborotni ommaga tezkor ravishda yetkazib bermoqda. Ayniqsa, xorijiy davlatlarda ro'y berayotgan turli xil voqea-hodisalar tezkor ma'lumotlar olmoqdamiz. Global tarmoning o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga ham ta'siri bor. Uning ijobiy tomonlari ham borgan sari ortib bermoqda.

"Ta'limda texnologiyadan foydalanishning innovatsion uslublari" mavzusida onlayn darslar tashkil etilsa yaxshi samara beradi.

Aytish joizki, internetning axborot maydoni kun sayin kengayib, axborot manbalari tez-tez yangilanib turadi. Bu esa, o'z navbatida taraqqiy etishimizda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Internetning salbiy tomonini misol sifatida keltiradigan bo'lsak, undagi ayrim ma'lumotlar yoshlarining ongiga ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlarimizning aksariyat qismi internetdagi turli xil axborotni o'qib, milliy udumlarga, diniy qadriyatlarimizga befarq bo'lmoqda. Bugungi kunda internet yoshlarning ijtimoiy hayotiga ham ta'sir milliy urf-odatlarimizga keskin o'zgartirishlar kiritmoqda. Ayrim saytlarda milliy ma'naviyatimiz, diniy qadriyatlarimizni hisobga olmasdan malumot va suratlar joylashtirilayotgani ham sir emas. Ayni paytda yoshlarga internet ma'lumotini to'g'ri qabul qilishni o'rgatishimiz lozim. O'sib kelayotgan har bir o'smir internetdagi ma'lumotdan to'g'ri foydalanish va uning zararli ekanini ajratib olsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Ushbu tushunchalarning turlichaligiga sabab axborotning maqsad va vazifalari ifodasi inson ilmiy tafakkurining rivoji bilan bog'liq hodisa ekanligidir. Biroq, shu o'rinda ta'kidlash kerakki, axborot bilish jarayonini to'raligicha o'zida aks ettirmaydi. Bu masalada u insonning bilish faoliyati mezoniga tenglasha olmaydi. Shuning uchun ham bilish jarayonida inson insonligicha, kompyuter mashinaligicha qoladi. Yana shuni aytishimiz mumkinki, gnoseologik masalalarga axborotli yondashuv asosida qarash falsafiy mazmun-mohiyat kasb etmaydi. Chunki bunday insoniy bilish unsurlarida gumanizm va axloqiy me'yorlar mavjud bo'ladi. Bu esa falsafiy mummolarning ortib borishidan dalolat bermoqda.

Tinimsiz va fidokorona mehnati tufayli daholikka erishdi va haqli ravishda o'zini o'zbek, vatanini O'zbekiston deb nomladi. "Biz kim, o'zbeklar bu dunyoda yaratgan jannat-bu O'zbekistonimizdir. O'zbekistonni mo'jizalar diyori, jannatdek mamlakat deydilar. Bu Vatan osmondan tappa-tayyor holda o'zicha yerga tushib qolgani yo'q. U tinimsiz va fidokorona mehnat bilan xalqimiz dahosi bilan bunyod etilgan". Axborotlashgan ta'sir an'anaviy xavf-xatarlar-terrorchilik, yadroviy qurollarning ishlatilishi, ekologik muammo va boshqa muammolardan farqli o'laroq ko'zga ko'rinmaydi, chegara bilmaydi, uzoq vaqt mobaynida singib boradi. Bugungi kunda hech narsadan tap tortmaydigan axborotlar ta'siri tufayli turli davlatlar aholisi kayfiyati, ruhiyati, dunyoqarashi va hatti-harakatlarida tub o'zgarishlar yuz berganligiga ko'plab misollar keltirish mumkin.

Yoshlarni biror bo'sh vaqtini unumli o'tkazishni yo'lga qo'yish, doimo foydali ishlar bilan shug'ullantirishni odat qilish, nazorat qilish ota-onaning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Barcha davrlarda ham ta'lim-tarbiyaning yaxshi natijalarga erishishida yoshlarimizni ilk bolaligidan ota-onaning, oila va jamiyatning, bobolari u- momolarining, ulug'-ulug' insonlarni to'g'ri ko'rsatmalariga qarab ta'lim-tarbiya berilib borilgan.

Vatanga mehr-muhabbatini kuchaytirish, mehnatsevarlik, insonparvarlik, hurmat-e'tiborini, oila mustahkamligini saqlash ko'nikma va malakalarini oshirishda ijobiy natijaga erishishda eng samarali yo'llarini qo'llash juda muhim.

Yoshlarda dunyoqarashining ijobiy tomonlarini rivojlantirib borish bilan birgalikda ularni nazoratni to'g'ri yo'lga qo'yish, yana bugungi kunda muhim vazifalardan biri o'sib kelayotgan yoshlarni ma'naviy tarbiyasiga javobgarlik hissini yanada kuchaytirish, ularni yetuk aql egasi etib, o'z oldiga ijobiy harakatlar majmuini hamjihat, insoniylik fazilatlarini mujassamlashtirgan iste'dodli farzandlar qilib voyaga yetkazishimiz nihoyatda zarur. O'zbekistonimizni butun o'zgarishlar davomida bir-necha yangi murakkab jarayonlar boshdan kechirib o'tkazganligi xalqimizni yangi hayot nashidalarida o'z kuchini farzandlar baxtu-saodati uchun har qanday vaziyatda o'z tinchligi va osoyishtaligini saqlay olish zahirida kuchli iroda, sabr, shijoat yotadi. Bu borada ta'lim jarayoniga

texnologik yondashuv o'z samarasini beradi. Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda diolog munozaralar, bahs-suhbatlar, fantaziyalar, izlanish darslari, muammolarni hal etish. darslari, ixtirochilik, modellashtirish, insholar yozish, solnomalar tuzish shular jumlasidandir.

Bugungi kunda Vatanimizda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya sohasida juda kata o'zgarishlar ro'y berayotgan go'zal bir davrda yashamoqdamiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi-yangi bog'chalar, maktablar, oliy o'quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, madaniyat va sport inshootlari, "Temurbeklar maktabi", "Prezident maktablari", "Ijodiy maktablari" deb nom olgan mutlaqo yangi namunadagi ta'lim maskanlari bugungi globallashtirish sharoitida raqobatga qodir bo'lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda" deb ta'kidlaganlar. Hozirgi zamon talablari asosida Prezidentimiz yoshlarni Vatandarlik ruhida ta'lim-tarbiya berishda hayotimizga fayz beruvchi har bir yoshni O'zbekistonimizning gullab yashnashiga o'z hissasini qo'sha olishiga zamin yaratib bermoqda. Bunda XXI asrning intellektual rivojlanishida inson omilining qanchalik darajada mukammal bilim va tajribasining yuqori darajaligi bilan hayotda yashashning hamma qulay tomonlarini izlab topishida o'quvchi yoshlarni har bir sohada a'lo darajadagi bilimi undan o'z vaqtida tezkorlik bilan foydalana olishiga bog'liq hisoblanadi. Ustozlarning yuksak darajadagi professionalligi shogirdlariga berilayotgan professional bilimlari va tajribalarini o'rgatishda har bir shogirdni vatandarparvarlik, insonparvarlik va samarali natijaviy malakalarini amalda qo'llay olishi bu shogirdlarning professional bilimlarga ega bo'lib borayotganidan darak beradi va natijada u ham ustoz sifatida boshqalarga joyi kelganda o'rgata olishi bu bugunning hamfikir, hamjihatlik bilan mehr-oqibatli tarzda bir-biridan o'rganishi hamda yuksak tajribaga ega bo'lishiga olib keladi. Prezidentimizning juda ko'p bora bizga, xalqimizga murojaatida aytganidek, buyuk bobokalon allomalarimiz kabi zamon talabidagi hamda hech bir zamonda o'z mavqeyini yo'qotmaydigan qadriyatlarimizni davom ettirish va ularga munosib avlod bo'lib, insoniyat ravnaqiga o'z hissani qo'sha oladigan vorislarni tarbiyalash har bir insonning burchidir. Chunki kelajak bilimli, zukko yoshlarning yuksak hayotiy bilim va tajribalari bilan go'zallashib boradi. Har qanday insonni oiladagi ta'lim-tarbiyasining qanchalik mukammalligiga qarab, uning insoniylik fazilatlarini va tafakkuri rivoj topadi. Axborot ta'lim muhitidagi eng jiddiy tahdidlardan biri bu bolaning psixologik jarohati bo'lib, uning ruhiy salomatligi, ijobiy rivojlanishi va uning asosiy ehtiyojlarini qondirish natijasida zarar ko'radi.

Zamonaviy texnologiyalarda faqat yaxshilikni yoki faqat yomonlikni ko'rish haddan tashqari narsalardan qochish kerak. Va har qanday vositada bo'lgani kabi, internetda ishlash ma'lum bir texnikani, aniqrog'i xavfsizlik madaniyatini talab qiladi. Uning ta'kidlanicha, ushbu jarayonning oqibatlaridan biri falsafadagi-"kompyuter bilan bog'liq burilish" bo'ldi. Bunda jamiyatning keng miqyosli kompyuterlashtirilishidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarni falsafiy anglash bo'yicha urinishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu fanning mazmuniga kelganda, bizning fikrimizga ko'ra, u sezilarli darajada keng bo'lishi lozim.

Darhaqiqat, axborot falsafasi ilmiy maktabi Xitoyda 30 yildan buyon mavjud bo'lib, uning asoschisi va ilmiy peshqadami professor U.Kundir, Akademik A.D.Ursul uning asoschisi va tan olingan peshqadamidir, ushbu sohadagi uning fundamental monografiyalari nafaqat Rossiya, balki boshqa mamlakatlar mutaxassislariga ma'lum. Ammo Rossiya ilmiy adabiyotlarida axborot falsafasi tushunchasini birinchi bor 1996 yil M.N.Sherbinin o'z maqolasida foydalangan. Uning fikricha, "butun olam tarixiy masshtabida falsafiy bilimlarni o'zida butunlik yangi formulasini axborot falsafasi ta'minlaydi".

Bugun yurtimizda 200 dan ortiq oliy o'quv yurti ertangi kun egalarini tarbiyalashga, ta'lim bermoqqa safarbar etilgan. Mamlakatimiz ta'lim jarayonining eng katta yutug'i uning uzluksizligi va uzviyligidir.

Ha, bizni shunday fikrlashga, ilmiy ishlarga, nafaqat bularga, balki odamiylikka, oddiylikka, halollikka, e'tiqodga undagan inson, mehribon ota-onamizdan keyin-aziz inson-ustozlarimizdir.

Mir Alishev Navoiy hazratlari aytganidek:

Agar shogird shayxulislom, agar qozidir,...

O'sib kelayotgan yoshlarga erishilajak natijaning asosida qattiq mehnat yotishini, bunga qunt bilan erishilishini, o'z navbatida, bular halollik, kamtarlik, vatandarparvarlik, bag'rikenglik zaminida bo'lsa, muvaffaqiyatlar barqaror bo'lishini mudom tushuntirib, shaxsiy namuna bo'lib borish lozimligini hayotning o'zi tasdiqlamoqda.

O'zbekiston davlati o'z tarixi va boy merosiga ega bo'lib, bunday merosdan unumli foydalanish Yangi O'zbekistonni yaratishda bebaho manba hisoblanadi.

FALSAFA

Hozirgi kunda olib borilayotgan islohotlarda biz innovatsion jarayonlarni milliy qadriyatlarimizga tayangan holda olib borishimiz kerak.

Bu boradagi izlanishlar O'zbekistonlik olim, faylasuf va mutaxassislarining asarlarida ham tahlil qilinmoqda.

Bu yutuqlar o'tmishi ming yilliklar qa'ridan boshlanadigan ulug' sivilizatsiyamiz tayyorlagan tarixiylik va zamonaviylik dialektikasining mevasidir.

O'zbekistondagi ijtimoiy taraqqiyotning zamonaviy yo'nalishlarini ishlab chiqish global ahamiyatga ega bo'lgan jarayonlar bilan bevosita bog'liq. Bu jarayonlar milliy turmush tarziga kirib borib, dunyoning barcha mamlakatlarida ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda.

XULOSA

Mustaqil yurt farzanlarini tarbiyalashda allomalar buyuk ijodiy me'rosi katta ahamiyatga ega, jumladan Rudakiyning vatanparvarlik va axloqiy qarashlari kelajagi buyuk yurt farzandlarini tarbiyalashda benihoya katta o'rin tutadi.

Yuqoridagi tahlil va xulosalardan mamlakatimizda turli sohalarga innovatsiyalarni tadbiq etishda samarali foydalanish, tizimdagi muammolarni ijobiy hal qilishda metodologik ahamiyat kasb etadi.

Xulosalar shuni anglatadiki, zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining global maydoni birinchi darajali bo'lib qolmoqda. Bunday maydonga individual va jamoaviy, obyektiv va subyektiv, moddiy va g'oyaviy tushunchalar birgalikda kiradi va ular global miqyosda ifodalangan yagona yangi bir turni hosil qilishadi. Shundan kelib chiqqan holda yagona axborot maydonida turib qanday qilib ichki va tashqi "o'ziniki" va "o'zganiki" tushunchalarini farqlay olishni tadqiqot qilish vazifasi paydo bo'ladi. Ular orasidagi demarkatsiya chizig'ini o'tkazish qanday shartlar asosida amalga oshirilishini bilib olish lozim bo'ladi. Zero, bunday chiziqning yo'qolib ketishi, biron bir davlatning o'z chegaralarini ushlab qolishga qodir emasligi - yangi ko'rinishdagi xavf- axborot xavfini keltirib chiqaradi. Axborot xavfiligi bir qancha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: - voqelikni o'zgartirishga yo'naltirilgan virtual dunyoni yaratish; - insonlarning ongi va xulqini hiylanayranglarga solish; - tashqi qoliplar asosida ularning maqsadlari, qadriyatlari va turmush tarzini o'zgartirish; - axborotlarni buzib ko'rsatish kabi. Axborot xavfiligining bu va boshqa shakllari insonning axborotga bo'lgan ehtiyojiga, haqiqat va yolg'onni, foydali va foydasiz ma'lumotlarni bir-biridan ajrata bilish layoqatliligi (yoki layoqatsizligiga) bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, ong va borliqning o'zaro ta'siri axborot maydonida yana dolzarb masalaga aylanadi. Bu narsa, ayniqsa, ular o'zida bilim, texnologiya va dasturlarni ifoda etgan axborot oqimlarining umumiy maydonida qolib ketishganida yaqqol namoyon bo'ladi. Ularni farqlay olmaslik, texnik moddiy tusga keltirilgan muhitning subyektiv debochasini almashtirish kabi salbiy yo'nalishni yuzaga keltiradi. Bunday muhitda esa "yaxshi" va "yomon" axloq qoidalariga ko'ra farqlanib bo'lmaydigan darajaga kelib qoladi. Destruktiv jarayonlar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun obyektiv xolis shakllarga kirib olish imkoniyatiga ega bo'lib olganlar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kolyada M.G. Okno v udivitelnyy mir informatiki. -Donetsk: Staller, 2007.
2. Axborot nazariyasi // Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1 jild. - O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2016. - 117 bet.
3. Abdullayev J.S. Perexod k informatsionnomu obshestvu i stanovleniye noosferi (filosofsko-metodologicheskiiye aspekti). Diss. kand.filos.nauk., -M., 1993
4. Sh.Mirziyoyev O'zbekiston yoshlar forumidagi nutqi. 2020 yil 25- dekabr.
5. Ochildiev A. Globalashuv va mafkuraviy jarayonlar. Toshkent.: Muharrir, 2009, 60 b.
6. Rasulov A., Saydullaev Sh. Kompyuter jinoyatlarining oldini olish // Hayot va qonun. -2002.-№1.-B.54-55.
7. Клаус Шваб. Четвертая промышленная революция.-М., Эксмо.2016.С.63
8. Ibrohimov A. Biz kim, o'zbeklar. Milliy davlatchiligimiz asoslari haqida mulohazalar. - Toshkent.: «Sharq», 2001. - 14 bet.)
9. Xoliqov E., Siddiqov B., Rustamov M., Mirzaev A. "Qalban ulg'ayish davri" Toshkent; "Extremum press" 2011.40 b.
10. Zoya Proshina. Theory of Translation, (English and Russian)Vladivostok
11. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF THE NATIONAL IDEA IN INCREASE OF HUMAN VALUES. Innovative Development in Educational Activities, 2(7), 616-625.
12. Jurakulovich, S. J. (2023). PHILOSOPHICAL VIEWS OF SAGES ON HUMAN VALUES AND GLORIFYING HIM. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 2(16), 229-238.
13. Шербинин М.Н. Философия информации // Прикладная философия и социология: труды международной конференции. - Ульяновск: УлГТУ, 2001. Т.1. -С.99.